



MISSIONERLIKNING IJTIMOIIY-SIYOSIY XAVFI

Akramova Saidaxon

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 1-bosqich 104-guruh talabasi

Mo'minjonova Layloxon

Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti 1-bosqich 104-guruh talabasi

Annotatsiya: *O'tmishdan bizga ma'lumki, din insonlar ongiga ta'sir o'tkazishning eng samarali usullaridan biri sifatida namoyon bo'la boshlagan. O'z navbatida, diniy ta'limotlar har qanday davlat va jamiyat hayotida madaniyat va ma'naviyatga kuchli ta'sir o'tkazish orqali davlat va jamiyat miqyosida asosiy o'rinni egallab kelgan. Dunyo miqyosida globallashuv jarayonida avj olib borayotgan ma'naviy tahdidlar, avvalo, mamlakat barqarorligi va jamiyat xavfsizligini ta'minlashda rahna solmoqda. Hozirgi kunda turli dinlar va konfessiyalar orasidagi eng asosiy to'sqinlik bevosita missionerlik va prozelitizm harakatlari natijasida sodir bo'lmoqda. Mazkur harakatlarni oldini olish va bartaraf etish dunyo miqyosidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolaveradi. Xo'sh, missionerlarning asl maqsad va vazifalari nimalardan iborat? Ularning harakatlari jamiyat taraqqiyotiga qanday salbiy ta'sirini ko'rsatadi? Missionerlik harakati yoshlar, ayniqsa, bolalar ongiga qanday ta'siri mavjud? Yurtimizda bunday oqimga qarshi qanday ishlar olib borilmoqda? Bu savollarga ushbu maqola orqali keng ko'lamda, to'laqonli javob beramiz.*

Kalit so'zlar: *missionerlik xavfi, geosiyosiy maqsad, missia hududlari, katolik cherkovi, buddizm, prozelit, xristian, vijdon erkinligi.*

Missionerlik" atamasi lotincha "missio"so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "yuborish", "vazifa topshirish", shundan kelib chiqqan xolda missioner so'zi esa, "vazifa bajaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. O'z navbatida, katolik cherkovi tomonidan xristianlik ta'limotini mahalliy aholi orasida yoyish maqsadida maxsus vazifa va topshiriqlarni bajaruvchi cherkov xodimlari "missioner", ular tashrif buyurayotgan mintaqalar "missiya hududlari" sifatida nomlanadi. Zero, xristian missionerligining ilohiyot asoslari hamda qarashlarini o'rganuvchi fan "missiya teologiyasi", missionerlik faoliyatlarni ilmiy jihatdan o'rganuvchi ilm sohasi esa "missiologiya" deb nomlanadi. Bugungi kunda mamlakatimizning bir qator olimlari missionerlik va prozelitizm harakatlari to'g'risida o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida



ushbu so'zlarga quyidagicha izohlar berib o'tgan. Jumladan, s.f.d., prof. N.Q.Jo'rayevning fikrga ko'ra, missionerlik o'zagini tashkil etgan "missio" va "missioner" so'zlarining ma'no va mazmuniga to'xtalar ekan, "missio" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "yuborish", "vazifa topshirish", "jo'natmoq" degan ma'nolar tushunchasini anglatadi. Missionerlik o'z mohiyatiga ko'ra, biron-bir dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida o'zining diniy qarashlarini targ'ib etishni anglatga, prozelitizm yunon tilidagi "proselitizm" so'zidan olingan bo'lib, "kelgindi bir joydan boshqa joyga ko'chuvchi", "o'zining diniy e'tiqodidan VOZ kechib, boshqa dinga o'tuvchi" degan ma'nolar bilan bir qatorda, "to'g'ridan-to'g'ri biror-bir dinga ishongan fuqaroni o'z dinidan voz kechishga va turli usullar orqali o'zga dinni qabul qilishga majbur qilish" degan ma'nolarni anglatishini alohida ta'kidlaydi. Yana bir falsafa doktori Mansur Musayevning fikriga ko'ra, Keng manoda missionerlik (lot. yuborish, topshirish) biror dinni oz yurtidagi yoki ozga yurtlardagi g'ayridinlar ortasida tarqatish sohasidagi cherkov tashkilotlarining faoliyati hisoblanadi. Missionerlik - biror dinga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ'ib qilish. Buddizmda miloddan avvalgi 3-asrdan boshlab yoyilgan, Xristianlikda missionerlik 4-asrdan paydo bolgan. XIII-XVI asrlarda xristian missionerligi Hindiston, Xitoy, Yaponiyaga kirib bordi. Katolik cherkovi missionerlik Ispaniya va Portugaliya mustamlaka imperiyalari tashkil topgach (XV-XVlasrlar), oz faoliyatini kuchaytirdi. Missionerlik Yangi erlarni zabt etishda mustamlakachilarga yordam berdi. Katolik missionerlariga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662 yilda Diniy targibot kongregasiyasini ta'sis etdi. Missionerlik 19-asrning uchinchi choragida, imperialistik davlatlar dunyoni bolib olish uchun kurash olib borgan davrda ayniqsa aktivlashdi. Xristian missionerlari Afrikada o'z faoliyatlarini kuchaytirdilar. 1970-yilda 2200 ta xorijiy missiyada 240 000 professional missioner faoliyat yuritgan bo'lsa, 2000-yilda 4800 ta xorijiy missiyada 420 000 missioner targ'ibot o'tkazib kelgan. 1970-yilda xorijiy missiyalarning faoliyatiga 3 milliard AQSh dollari sarflangan bo'lsa, 2000-yilda ushbu ko'rsatkich 12 milliardga yetgan. Yetakchi missionerlik markazlari qatorida «Missiyalar va butunjahon xristianlik maktabi» (Birmingem), «Genri Martin markazi» (Kembridj, Buyuk Britaniya), Grigorian va Urbanian universitetlari (Vatikan), «Xorijiy missiyalarni o'rganish markazi»ni (Nyu-Xeyven, AQSh) qayd qilish mumkin. Missionerlar muayyan hududda o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda muhim mintaqalarni belgilab oladilar. Jumladan, hozirgi kunda xristian missionerlarining diqqat-e'tibori ular tomonidan «10-40 oyna» deb atalgan hududga qaratilgan. Ushbu hudud shimoliy kenglikning 10 va 40-parallellari orasidagi Atlantika okeani qirg'oqlaridan Kichik va Markaziy Osiyo, Arabiston yarim oroli, Janubiy Osiyoning Tinch okeani qirg'oqlariga qadar cho'zilgan. Dinini (e'tiqodini)





o'zgartirayotgan shaxslar (prozelit)larning aksariyati ushbu din aqidalarini chuqur tushunib qabul qilmay, balki missioner tomonidan qo'llanilgan ta'sir ostida e'tiqodini o'zgartirmoqdalar. Missionerlar o'z faoliyatlarini quyidagi usullar orqali olib boradilar:

Shu o'rinda, missionerlik aniq belgilangan siyosiy maqsadlarni amalga oshirishda aksariyat holatlarda yovuz va buzg'unchi goyalarini kozlayotgani oydinlashmoqda. Mazkur harakatlar oqibatida iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolgan davlatlarga "beg'araz" yordamning korsatish niqobi ostida ayrim mustaqil davlatlarning ichki ishlariga ochiqdan ochiq aralashuvining yashirin korinishi sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyo miqyosida missionerlikning keng kolamdagi faoliyati missionerlik tashkilotlarini kengaytirmoqda. Mazkur harakatga xalqaro miqyosda homiylik qilayotgan siyosiy markazlar, moliyaviy doiralar, alohida shaxslarning doimiy etiborda ekanligi missionerlikka nisbatan jiddiy etibor qaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, "ayrim" siyosiy markazlar komagi ostida "begaraz" moliyaviy yordam korsatish va turli xayriya jamg'armalari niqobi ostida kollab quvvatlash masalani bu borada jiddiy ekanligini taqoza etadi. Xorijiy moliyaviy komak asosida moliyalashtirilayotgan missionerlik strategiyasida aksariyat holatlarda siyosiy maqsadlarni kozlab harakat qilayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ziddiyatlardan oz manfaatlari yolida foydalanib kelayotgan turli xil siyosiy-mafkuraviy guruhlar etnik-milliy, diniy asosda yangi ziddiyatlarni ongli ravishda avjiga chiqarmoqdalar. Natijada, mazkur holat, muayyan mintaqalarda avvalo, jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligiga putur etishi uchun zamin yaratmoqda. Aynan, missionerlikni rivojlantirish maqsadida xorijdan yonaltirilayotgan "begaraz moliyaviy"dan oz manfaati va maqsadlari sari intilish tobora oydinlashmoqda. Vaholanki, dunyo miqyosida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora ozgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning oz demokratiyasini "eksport" qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadida ochiqdan - ochiq da'vogarlik qilishga bolgan harakatlar misolida namoyon bolmoqda.

Xulosa: Dunyoda miqyosida tahlikali vaziyatini tobora avj olishi missionerlik borasida jiddiy fikrlashni taqozo etayotir. Missionerlik oqibatida muayyan hudud va mintaqada katta manaviy yoqotishlar yuz berayotganligi mamlakat miqyosida hukumat boshqaruvida ozaro qarama qarshi kuchlarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Mazkur holat, eng avvalo, millatning asriy qadriyatlariga raxna solish orqali xalq va millatning turmush darajasini izdan chiqarish orqali davlat boshqaruvida separatizmning kuchayishi muayyan mamlakat suverenitetiga nisbatan jiddiy xavf solmoqda.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1."Diniy ekstremizm,missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurash"qo'llanmasi
- 2.Darakchi.uz sayti
- 3."Dunyo dinlar tarixi" 10-11 sinf
- 4.Boboxon Boboxonov "Missionerlik" mavzusidagi taqdimoti
- 5.Sammuslim.uz sayti

